

UCHTILLILIKDA TAFOVUQLARNI ANIQLASHTIRISH YORDAMIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Ismoilova Shodiya Xusanboy qizi

FarDU tayanch doktranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13162610>

Nemis tilidan keyin ingliz tilini o'rganish jarayoni uchun maxsus qism bu albatta ikki til o'rtasidagi aniq tovush farqlarni ajratib olish va aynan ana shu muammoli tovushlar ustida shug'ullanish nutqdagi interferensiv holatlarga yuzma-yuz kelish va yengish demakdir. Bu texnikani 2 qismga ajratish mumkin:

- 1) Nemis tilida mavjud bo'lmagan lekin ingliz tilida mavjud va talabalar uchun yangi hisoblangan tovushlar ustida ishlash
- 2) Nemis tilida ham ingliz tilida ham mavjud lekin talaffuzda farq qiluvchi tovushlar ustida ishlash

Bu texnikani ilk darslarda qo'llash nutqda interferensiv kompetentlikni shakillantirishda katta yordam beradi. Sababi tillar o'rtasidagi aniq farq ajratib alohida shakilda ko'rsatiladi va natijada xatoliklar, nutq buzilishlari va tallafuzdagi qiyinchiliklar avvaldan bartaraf etiladi. Shuning uchun ham buni talabalar hatto bironta lug'at yodlamasdan turib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Lekin shuni ham yodda tutish lozimki, ingliz tili nemis xalqiga ikkinchi til sifatida o'rgatilgandan ko'ra, o'zbek xalqiga uchinchi til sifatida o'qitilganda, ayniqsa nutq va talaffuz masalasida, ancha oson va qulaydir. Sababi birinchi til nutq apparati holati ikkala tilga ham juda muvofiq va moslashuvchan. Ya'ni, ayrim nemislar eplay olmaydigan talaffuzlarni ham bizning talabalar bemalol chiqara olishadi. Bu yerda asosiy masala, shuning uchun ham, interferensiyaning oldini olish, talabalarda tillararo kompetentlikni shakillantirishdir.¹

Birinchi holatga ko'ra nemis tili vakillari uchun yod tovushlar: /θ/, /ð/, /w/, / «3»:/, /æ/ "word", "her", "weird", "those", "think", "breath", "sad" kabi so'zlardagi yuqorida ko'rsatilgan talaffuzlari nemis tilida umuman mavjud emas va nemis tilini puxta o'zlashtirgan talabalar uchun ham shunday so'zlarni talaffuz qilish anchagina qiyin tuyulishi tabiiy.

Ikkinchi holatga ko'ra ayrim tovushlar va ularning qonuniyatlari bixil bo'lishiga qaramat orfoepik xilma-xilligi mavjud. Masalan "l" ikkala tilda ham teng ravishda bir xil fonetik birlik. Lekin nutq tarkibida ularni ikki til vakillarining biroz farqli talaffuziga guvohi bo'lishimiz mumkin. "telephone" so'zidagi "l" talaffuzi ingliz tilida tillarning old-ustki tishlarga tegib qattiqroq talaffuz qilinsa, aynan shu so'z nemis tilida "Telefon" bo'lib undagi "l" tovushi tilning tag'nayga tegib yumshoq tarzda ifodalanadi. Yoki "r", "s", "d" tovushlari ham shu kabilardir.

Bu kabi jiddiy farqlar ustida ishlash esa oson bo'lmaydi. Lekin nemis tilini uchunchi til ekanligini inobatga olsak, birinchi til imkoniyatimiz albatta bu masalani hal qila oladi. Buning uchun nemis va endigina o'rganilayotgan ingliz tili talaffuzining shunday farqlarini ajratib, ikki til xususiyatini yorqin farqlashning eng zo'r usuli bu "cognate"lar bilan ishlashdir. Ya'ni, ikkala tilda mavjud yozilishi ham, talaffuzi ham yaqin yoki bir xil so'zlar saralanib, ularning surati kichik kartochkalar shaklida tayyorlanadi. Masalan, kompyuter surati talabalarga ko'rsatiladi va uning avval nemischa tarjimasi va talaffuzi so'raladi. So'ngra talabalar ana o'sha

¹ <https://www.youtube.com/watch?v=8Q57FRfFlnQ> shu kabi videodarslar orqali yuqorida ta'kidlangan holatni isbotini topish mumkin va talabalar imkoniyatlari ongiy ravishda kengayishiga erishilishi mumkin.

soʻzni inglizcha talaffuzda oʻqishadi. Talabalar suratdagi soʻz tarjimasini bilmasligi ham mumkin va bu darsni yanada qizi va emotsional qiladi. Aynan nemis tilidagi tarjimani inglizcha tabiatda oʻqib koʻrgan talaba tarjimasi ham aynan oʻsha soʻzligini bilgach unda mashgʻulotni davom ettirishga qiziqish uygʻonadi va talaffuz ustida ishlash bilan birgalikda soʻz boyligini ham oshirib boradi.

References:

1. Hammarberg, B. and Williams, S. 2009. A study of third language acquisition. In Processes in Third Language Acquisition, B. Hammarberg (ed.). Edinburgh: Edinburgh University Press
2. Horvatić Čajko, Irena Factors related to language transfer in L3 learning. 2012
3. Ismoilova, S. (2023). TIL INTERFERENSIYASIGA OID TURLI TALQINLAR TAHLILI. SCHOLAR, 1(34), 272-275.
4. Ismoilova, S. X. (2023). QO 'SHIMCHA CHET TILI O'RGANISH JARAYONIDA ESKI TAJRIBALARGA TAYANISHNING INTERFERENTIV KOMPETENTLIKNI SHAKILLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 770-777.
5. Khasinah, S. (2014). Factors influencing second language acquisition. Englisia: Journal of Language, Education, and Humanities, 1(2).